

**TA'LIMDA TYUTORLIK FAOLIYATING O'RNI VA  
AHAMIYATLI JIHATLARI**

*O'rinovalar Nilufar Muhammadovna*

*FarDU professori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*[urinova.nm@mail.ru](mailto:urinova.nm@mail.ru)*

*Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi*

*FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi*

*I-kurs magistranti*

*[madinabonumuhammadjonova07@gmail.com](mailto:madinabonumuhammadjonova07@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tyutorlik tushunchasining mazmun mohiyati, ta'lim tizimiga kirib kelishi, ta'lim jarayonida uning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari va o'quvchilar bilan ishslash prinsplari borasida foydali ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tyutor, ta'lim tizimi, tyutorlik faoliyati, samaradorlik, ahamiyat, maqsadlar, talablar, prinsplar.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье описывается значение понятия репетиторства, процесс его проникновения в систему образования, его роль и значение в образовании. Кроме того, представлена полезная информация и материалы об основных целях репетиторства и принципах работы со студентами.

**Ключевые слова:** Тьютор, образовательная система, репетиторская деятельность, эффективность, значение, цели, требования, принципы.

**ABSTRACT**

This article describes the meaning of the concept of tutoring, its entry process into the education system, its role and importance in educating. In addition, useful information and materials are provided about the main goals of tutoring and the principles of working with students.

**Keywords:** Tutor, educational system, tutoring activities, efficiency, importance, goals, requirements, principles.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim samaradorligini oshirish uchun barkamol shaxsning ijobjiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda ahmiyatli o'rinni egallagan. Ayrim o'quvchi yoshlarda yuksak va aniq maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'lim sifati uchun zararli omillardan bo'lmoqda. Bu masalalar yechimlarini topish va ta'lim sifati

samaradorligini oshirish maqsadida Respublika Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi – O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi PF5847 – sonli Farmoni imzolandi. “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da – oliy ta’lim bilan qamrovn kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, fan sohalari bo’yicha professor-o’qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda “tyutorlik” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish belgilab qo’yilgan. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida bir qancha tizimli yangilik va o’zgartirishlar shakllantirildi. Ular qatorida 2021 yil 1-sentabrdan boshlab talabalar bilan ishslash bo’yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilinib, o’rniga talabalar bilan ishlaydigan “tyutorlar” amaliyoti yo’lga qo’yildi.

**Tyutor** – bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan xodim bo’lib, o’ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko’maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to’garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o’rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradigan shaxsdir.

Tyutor - talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o’rganish va ularni yaxshilash choralarini ko’rish faoliyati bilan shug’ullanadi. [2]

Ta’lim jarayonida tyutorlik faoliyatini tatbiq etilishining asosiy *maqsadlari*:

- ta’lim va tarbiya jarayoni uyg’unligini samarali tashkil etish;
- universitet va talabalar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko’rsatgan holda o’zini yanada yaxshiroq anglash, o’qish va hayotda to’g’ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatini oshirish;
- universitetdagi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o’quvchilar davomatini yaxshilash;
- talabalarning dars mashg’ulotlarini o’zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishlarini ta’minlash;
- ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan xabardor bo’lishdan iborat.

Oliy ta’lim tizimida tyutorlar faoliyatini yo’lga qo’yish, ularni lavozimga tayinlash bo’yicha tyutorlar oldiga qo’yilgan bir qancha *talablar* mavjud. Ular quyidagilardan tashkil topgan.

- a) Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliliklar beriladi);
- b) 25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi;
- c) Pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2 yildan kam bo'lмаган (2 yildan ko'п bo'lганlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;
- d) Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'lim berish huquqidan mahrum etilmagan bo'lishi;
- e) Namunaviy shaxsiy fazilatlarga – intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobilyatlariga ega bo'lishi, mas'uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur.

Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e'tibor qozongan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqr anglab yetgan, pedagogik va psixologik bilim va tajribaga ega bo'lган professor-o'qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, universitetga ishga qabul qilish bo'yicha komissiyaga taqdim etiladi. Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. [2]

Tyutorlik faoliyatining markazida talaba turadi. Bu jarayon muayyan shaxsning shaxsiy ehtiyojlari, maqsadlari va sharoitlarini unumli tashkil etish va ta'minlashni o'z ichiga qamrab oladi. Samarali tyutorlik jarayoni aniq yo'nalishlarga va talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda tuziladigan va moslanadigan rejaga ega bo'lishlikni talab qiladi. Bir so'z bilan ta'kidlaganda, tyutorlik talabaning o'sishi va rivojlanishiga qaratilgan o'quv hamkorligidir.

O'qituvchilar va tyutorlarning egallagan o'rni bir biridan farq qilsada, talabalarning ta'lim olish jarayonida ikkisi ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar – o'quv rejasini ishlab chiqish, darslarni o'tkazish va talabalar faoliyatini baholash uchun mas'uldirlar. O'qituvchilar ham xuddi tyutorlardek o'z o'quvchilari bilan individual aloqa o'rnatadilar, lekin ularning ishi asosan ma'ruzalar va mashg'ulotlar orqali bir guruh o'quvchilar uchun kursni belgilashdan iborat.

Tyutorlar – tyutor sifatida ular kursni boshidan mutloq o'zgartirib tashkillashmaydi. Buning o'rniga, tyutorlar o'quvchilarni o'qituvchi bergan yo'nalish bo'yicha yo'naltiradi. Talabaga ta'lim olish, darslarni o'zlashtirish va o'qishlarini boshqarishda yordam beradi. Tyutorlar talabalarrni qo'llab-quvvatlash orqali o'z kutgan natijalariga erishishlari mumkin.

Tyutorlik mashaqqatli kasblardan biridir. Pedagogning tyutor sifatidagi asosiy roli - talabalarga muammolarni hal qilish uchun vaziyatlarni anglash va ularni tahlil

qilishga ko'maklashish, talabalarda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirish va bilim ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

*Talabalar bilan ishlashning asosiy prinsplari:*

- Muloqot qilish orqali;
- Samimiylit orqali;
- Tajribalar bilan bo'lishish orqali;
- Jarayonda shaffoflik orqali;
- Tyutor hamkasblar bilan fikr almashish orqali.

**Muloqot qilish orqali** – muloqot qilish bu kasbdagi muvaffaqiyatga erishish kalitlaridan biridir. Nonverbal (og'zaki bo'limgan) muloqot og'zaki muloqot kabi muhimdir, shuning uchun tyutor o'zining tana nutqi va harakatlariga e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, qo'llarni biriktirib olish, o'rindiqqa suyanish, ruchkani qimirlatish yoki davomli ravishda umidsiz ko'rinishda yurishdan qochish tavsiya etiladi. Talaba bilan muloqot jarayonida uni qo'llab-quvvatlayotganimizni anglatish uchun bosh chayqab, tabassum qilish o'z samarali yo'llardan biridir. Muqobil ravishda "eye contact" (ko'z bilan aloqa) qilish, talabani tinglayotganimizni ko'rsatish va uni ruhlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi.

**Samimiylit orqali** – talabalar bizni muammoli masalalar ustida o'ylanganimizni ham, va yoki mamnun, ochiq, o'ziga ishongan va qulay holatda ekanligimizni ham to'liq his qilishadi. Ular bilan jarayon davomida samimiylit suhbat qurish bizni talabalarga qay darajada yaqin ekanligimizni va tushunishimizni ko'rsatish imkonini beradi.

**Tajribalar bilan bo'lishish orqali** – barchamiz turli fanlar va hayotning turli sohalarida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelganmiz. Bu borada boshdan kechirganlarimizni talabalarga aytib berish talabalar o'zlarini yolg'iz deb hisoblamasliklari, bunday qiyinchiliklarga faqat ular duch kelmasligini anglatishga imkon beradi.

**Jarayonda shaffoflik orqali** – muloqot va guruh ishi tyutorlikning juda ham muhim qismlaridan hisoblanadi. Muvaffaqiyat qozonish uchun tyutorlar imkon boricha vaziyatlarni shaffoflashtirishi kerak. Bu borada ham tyutorning ham talabaning kutgan natijalarini ko'rsatishga yordam beradigan rejalar tuzish, aniq chegaralar o'rnatish, ochiq va muntazam muloqot qilish zarur.

**Tyutor hamkasblar bilan fikr almashish** – bu harakat tyutorga talaba turmush tarzi va holati haqida foydali ma'lumotga ega bo'lish va ular payqamagan texnikalar ta'minotiga ega bo'lish imkonini beradi.

Muhtasar qilib shuni aytishimiz mumkinki, tyutorlik faoliyati ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim o'rinn egallaydi. Biz bu jarayon orqali talabalarni ta'lim jarayoniga to'liq jalb etishimiz, qiziqtirishimiz mumkin. Mazkur faoliyat talaba

yoshlarni har jabhada qo'llab-quvvatlashga, yurtimiz uchun kerakli va barkamol shaxslarni shakllantirishga keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida||gi PF 5847 son Farmoni// lex.uz
2. Davlat oliy ta'lif muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi "Namunaviy nizom".
3. "General guidelines for tutors". Journal of Carnegie Mellon University © 2023 5000 Forbes Avenue, Cyert Hall A64.
4. "The tutor's role and responsibilities". Tutor handbook Copyright by Penny Feltner © 2021. New York publishing.
5. McGuire, S. Y., & McGuire, Stephanie. (2015). Teach students how to learn: strategies you can incorporate into any course to improve student metacognition, study skills, and motivation (First edition.). Stylus Publishing, LLC.
6. Chin, T., J. Estrada, & J. Rabow. (2011), Tutoring Matters: Everything You Always Wanted to Know about How to Tutor (Second edition). Temple University Press.
7. "What is tutoring?" Journal of Cluey learning. Cluey treating teachers across Australia and New Zealand Monday 16 January 2023.
8. Лях А.Ю. Развивающий потенциал тьюторских технологий в системе обучения старших школьников // Образование и наука. 2013
9. cyberleninka.ru, edu.uz, oak.uz, researchgate.com